

ПУДРАТ ШАРТНОМАСИ № 6-22/Б

Избоскан тумани

«22» декабрь 2022 йил

Ушбу пудрат шартномаси «*Буюртмачи*» деб аталувчи Избоскан тумани Халк таълими булими ва унинг номидан Низом асосида иш олиб борувчи мудири Ф. Гусейнов бир томондан ва «*Хизмат курсатувчи*» деб аталувчи “Нурафшон Электр лойиха” мчж ва унинг номидан Низом асосида иш олиб борувчи раҳбари З. Ворисов иккинчи томондан келишув асосида амалдаги қонунларга мувофиқ тузилди.

I. ШАРТНОМАНИНГ МАВЗУСИ

1.1. «*Хизмат курсатувчи*» мазкур шартнома шартларига мувофиқ «*Буюртмачи*»нинг Избоскан тумани 19-умумтаълим мактаби биносига 10 кВт күёш панеллари тупламини урнатиш ишларини бажарип беради.

II. ШАРТНОМАНИНГ БАХОСИ ВА ХИСОБ КИТОБ ТАРТИБИ

2.1. Бажарилиши лозим бўлган ишлар «*Буюртмачи*» томонидан тасдиқланган сметага ва танлов комиссиясининг қарори билан тасдиқланган ишлар кушилган киймат солиги билан жорий нархларда **105 000 000 (Бир юз беш миллион) сўмни** ташкил этади.

2.2. Бажариладиган ишлар қиймати узил кесил хисобланиб, фақатгина ишлар хажми буюртмачи томонидан ўзгартирилганида ва форс мажор холатлари сабаб бўлганида қайта кўриб чиқилиб, томонлар ўртасида қўшимча битим билан расмийлаштирилади.

2.3. Шартнома томонлар ўртасида имзоланиб, тегишли Газначилик бўлимида рўйхатга олингандан сўнг 10 банк иш кунида «*Буюртмачи*» бажариладиган ишлар умумий қийматининг 30 фоизини яъни **31 500 000 (Уттиз бир миллион беш юз минг)** сўмни туловлар кетма кетлигига асосан олдиндан аванс тариқасида «*Хизмат курсатувчи*»нинг хисоб рақамига ўтказиб беради.

2.4. Бажарилган ишлар учун тўловларнинг қолган 70 фоизи, яъни **73 500 000 (Етмиш уч миллион беш юз минг)** сўмини «*Хизмат курсатувчи*» томонидан топширилган бажарилган ишлар далолатномаси ва бажарилган ишлар қийматлари тўғрисидаги маълумотномалар асосида ўтказиб беради.

2.5. «*Буюртмачи*» охирги тўловни «*Хизмат курсатувчи*» томонидан иш тўлиқ бажарип топширилиб, қабул қилиш – топшириш далолатномаси ва бажарилган ишлар қийматлари тўғрисидаги маълумотномалар асосида 30 банк иш кунидан кечикмаган муддатда ўтказиб беради.

2.6. Бажарилган ишлар учун тўловлар «*Буюртмачи*» томонидан пул ўтказиш йўли билан амалга оширилади.

III. ТОМОНЛАРНИНГ ХУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ

3.1. «*Хизмат курсатувчи*»нинг мажбуриятлари

Шартнома имзолангандан сўнг иш бажариладиган объектни «*Буюртмачи*»дан далолатномага асосан қабул килиб олади.

Мазкур шартномада илова қилинадиган тўлов жадвалига мувофиқ биринчи аванс тўлови амалга оширилгандан бошлаб 5 кун муддат ичида ишларни

бажаришга киришади ва ишларни бажариш календар графигига асосан 5 (беш) кун муддатда ишларни бажариб топширади.

Барча ишларни тасдиқланган смета хужжатларига мувофик, мазкур шартномада назарда тутилган хажмда ва муддатларда ўзининг кучлари билан бажариш ҳамда «*Буюртмачи*»га мазкур шартнома шартларига мувофик топширади.

3.2. «Хизмат курсатувчи»нинг хукуқлари

Бажариб берилган иш учун олдиндан аванс хақ тўланишини ва ишни бажариб топширгандан сўнг тўла хажмда хисоб китоб қилинишини талаб қилиш;

Бажариб берилган ишни қабул қилиб олиш асоссиз равишда рад этилиши натижасида етказилган заарни қопланишини талаб қилиш;

3.3. «Буюртмачи»нинг мажбуриятлари

Тасдиқланган смета бўйича бажарилган ишларни қабул қилиб олиш;

Бажарилган ишлар учун ўз вақтида хақ тўлаш;

3.4. «Буюртмачи»нинг хукуқлари

«Хизмат курсатувчи»дан амалдаги давлат стандартлари ва бошқа меъёрий хужжатлар билан таъминлашни талаб қилиш;

Камчиликларни бепул бартараф этилиши ёки камчиликларни бошқа шахс томонидан тўғриланиши харажатларини қопланишини талаб қилиш;

«Хизмат курсатувчи»дан шартномада курсатилган ишларини қабул қилиш комиссияси иштирокида лойиха хужжатлари асосида ишни сифатли бажарган холда қабул қилиб олиш;

«Хизмат курсатувчи» томонидан ишлатиладиган материаллар ва асбоб ускуналарни шартнома шартларига ва иш хужжатларига мувофиқлигини назорат қилиш;

IV. ТОМОНЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

4.1. Томонлардан бири шартнома мажбуриятини бажармаса ёки зарур даражада бажармаса мажбуриятни бажармаган томон иккинчи томонга етказилган заарни тўлайди;

4.2. «Хизмат курсатувчи» объектни ўз вақтида топширмаганлиги учун «Буюртмачи»га хар бир кечикирилган кун учун шартнома мажбуриятлари бажарилмаган қисмининг 0,5% миқдорида пеня тўлайди. Тўланадиган пеня суммаси бажарилмаган мажбуриятлар баҳосининг 50 % идан ошмаслиги керак.

4.3. Аниқланган нуқсон ва камчиликлар «Хизмат курсатувчи» томонидан ўз вақтида бартараф қилинмаса “Буюртмачи” тўловлар тўхтатилади. Лозим даражада бажарилмаган ишларнинг 20 % и миқдорида «Пудратчи» жарима тўлайди.

4.4. Бажарилган ишлар учун «Буюртмачи» томонидан ўз вақтида хақ тўланмаса, хар бир кечикирилган кун учун кечикирилган тўлов суммасининг 0,4 % и миқдорида пеня тўлайди. Тўланадиган пеняларнинг умумий суммаси кечикирилган тўловларнинг 50 % и миқдоридан ортмаслиги керак.

4.5. Тўланадиган пенялар шартнома мажбуриятларини бузган тарафни иккинчи тарафга ана шу мажбуриятларни бажармаслик оқибатида етказилган заарни қоплаш жавобгарлигидан озод этмайди.

V. ФОРС МАЖОР ХОЛАТЛАР

5.1 Ушбу шартнома бўйича мажбуриятларни тўлиқ ёки қисман бажарилмаслиги табиат ходисалари ва бошқа енгиб бўлмайдиган куч холатлари

натижасида келиб чиқса ва бу холатлар шартнома шартларини бажарилишига бевосита таъсир этса томонларнинг жавобгарлиқдан озод этилиши Қонун хужжатларида белгиланган тартибда кўриб чиқилади.

VI. ШАРТНОМАНИ ЎЗГАРТИРИШ, БЕКОР ҚИЛИШ ВА НИЗОЛАРНИ ХАЛ ҚИЛИШ ТАРТИБИ

6.1. Мазкур шартнома белгиланган шаклда томонларнинг ўзаро келишувига мувофиқ ўзгартерилиши ва бекор қилиниши мумкин.

6.2. Мазкур шартнома бўйича юзага келиши мумкин бўлган низо ва келишмовчиликлар ўзаро мухокама йўллари билан хал этилади. Агарда ўзаро мухокама йўли билан хал этиш имкони бўлмаса Қонун хужжатларида белгиланган тартибда Хўжалик суди орқали хал этилади.

VII. ШАРТНОМАНИНГ АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТЛАРИ

7.1. Шартнома томонлар имзолаб, худудий Ғазначилик бўлимида рўйхатга олинган кундан кучга кириб, 31 декабрь 2022 йилгача амал қиласи.

7.2. Шартнома 2 нусхада тузилиб, иккала нусхаси ҳам хуқуқий жихатдан teng кучли ҳисобланади.

VIII. ТОМОНЛАРНИНГ РЕКВИЗИТЛАРИ

«ХИЗМАТ КУРСАТУВЧИ»

«Нурафшон Электр лойиха» мчж
Манзил: Шахрихон тумани Шахрихон КФЙ
x/p: 20208000200203398001

СТИР: 302554740

МФО: 01037

ОКОНХ: 71110

“Кишлок курилиш банк” АТБ Бош
амалиётлар бошкармаси

3.Ворисов



Избоскан тумани Халқ таълими булими
Манзил: Таситуз шекор ишчилик нуказу
Ш.х/в: 100022 86003214 70 91 0003506
СТИР: 207125126

МФО: 00014
ОКОНХ: 94511

Ғазначилик бўлинмаси номи: Молия Вазирлиги
ғазначилиги ягона ғазначилик
x/p 2340 2000 3001 0000 1010
Тошкент шахар Марказий банк XKKM
МФО: 00014, СТИР 201122919

Рахбар:



Д. Тошибеков

Ресурсная смета № 6-22/Б

На установку солнечной фотоэлектрической станции (СФЭС)

системы OnGrid возобновляемой (зелёной) энергии

№	№ расценок	Наименование работ	Ед. измер	Всего	Затраты труда чел/час за единицу	Затраты труда чел/час за всего
(Сборник 1, Электротехнические устройства, ГК РУз, по АиС, 2006г.)						
1	02-01-048-02	Комплексная наладка и сдача в эксплуатацию, 2 -я категория				10500000
		Солнечные модули 10 кВт (255-305 Ватт)	копм	1		
		Счетчик эл. энергии 3 фазный	шт	1		
		Автоматы 63 А	шт	1		
		Инвертор 10 кВт	шт	1		
		Система креплени СФЭС	комп	1		
		Щит металлический 1000x800x4000	шт	1		
		Кабели, коннекторы МС-4 и прочие комплектующие	комп	1		
Итого к платежу						10500000

Составил:



Проверил:



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

OJ1233448864

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Izboskan tuman XTBga qarashli 19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi binosiga 10 kVt quyosh panellari to‘plamini o‘rnatish ishlarini bajarib beradi.**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Izboskan tumani xalq ta’limi tomonidan 21.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Izboskan tumani
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:



SH.A.TURSUNOV

22.12.2022

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 209513 на приобретение 19-умутаълим мактабига куёш панели сотиб олиш

Способ проведения электронный

Дата 16.12.2022

Время рассмотрения 08.12.2022 15:23

Конкурсная комиссия Избоскан тумани Халк таълими бўлими, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	PARPIYEV ABDULXAFIZ ABDUG'APPAROVICH	Бош бухгалтер	XTB
Секретарь комиссии	ZAYNOBITDINOV ZIYODULLA MIRZA O'G'LI	Шартнома булим бошлиги	Изб ХТБ
Член комиссии	XAYDAROVA SEVARAXON ERGASHBOYEVNA	Шартноомалар буйича мутахассис	XTB
Член комиссии	Мирзаабдуллаев Шерзодбек Махмадович	КТБМ	XTB
Член комиссии	KODIROV SHERZOD ASAMATJONOVICH	Инженер	XTB
Член комиссии	QUVANOV AXLIDIN SALOXIDIN O'G'LI	Ёр инженер	XTB

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объятиению на специальном информационном портале от 16.12.2022 года № лота 209513.

Метод оценки предложений – Бальный метод

Мин. балл: 30

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Фото электрическая панель
Подробное описание	Сифат
Количество товара	1.00
Единица измерения	компл.
Цена товара (услуги) за единицу	105 000 000.00
Стартовая сумма	105 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Максулот сертификати

Тип: Текстовое значение

Описание: Ишлаб чикарувчининг ишончномаси ва максулот сертификати булиши шарт. Маълумотнома санаси танлов таклифларини қабул қилиш даврига мос бўлиши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NURAFSHON ELEKTR LOYIHA MCHJ	30	105000000	30	Экспертная		
ООО SUN-HIGHTECH	30	Малумот	15	Экспертная		

Критерий №2 Кафолат

Тип: Текстовое значение

Описание: Йетказиб берувчи 25 йил мобайнида бажарилиган ишлар учун кафолат бериши керак, агар кўрсатилган муддат ичидаги носозлик ҳолати аниқлансанда йетказиб берувчи ҳисобидан бартараф этилади

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NURAFSHON ELEKTR LOYIHA MCHJ	30	Илова килинди	30	Экспертная		
ООО SUN-HIGHTECH	30	Малумот	15	Экспертная		

Критерий №3 коррупция

Тип: Текстовое значение

Описание: Коррупцион холатларга йўл қўйилмаслиги тўғрисида иштирокчининг ёзма тасдиқланган аризаси

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NURAFSHON ELEKTR LOYIHA MCHJ	30	Илова килинди	30	Экспертная		
ООО SUN-HIGHTECH	30	Малумот	30	Экспертная		

Финансовое значение

Наименование товара: Фото электрическая панель

Ценовые предложения				Порядок оценки ценовых предложений	
Наименование участника	Стартовая сумма (UZS)	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Коэффициент, используемый для расчета предложений нерезидентов	Итоговое значение (UZS)
NURAFSHON ELEKTR LOYIHA MCHJ	105 000 000.00	105 000 000.00 UZS	105 000 000.00	00.00	105 000 000.00
ООО SUN-HIGHTECH	105 000 000.00	105 000 000.00 UZS	105 000 000.00	00.00	105 000 000.00

Оценка участников финансовой части составила:

Стартовая сумма составляет 105 000 000.00 UZS

Наименование участника	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Коэффициент, используемый для расчета предложений нерезидентов	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
NURAFSHON ELEKTR LOYIHA MCHJ	105 000 000.00 UZS	105 000 000.00	00.00	00.00	105 000 000.00	15.12.2022 23:19:18	10
ООО SUN-	105 000 000.00	105 000 000.00	00.00	00.00	105 000	16.12.2022	10

HIGHTECH	UZS				000.00	03:47:07	
----------	-----	--	--	--	--------	----------	--

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
NURAFSHON ELEKTR LOYIHA MCHJ	90	10	100
ООО SUN-HIGHTECH	60.0003	10	70.0003

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 209513 от 16.12.2022 года на приобретение 19-умумтаълим мактабига күёш панели сотиб олиш определила победителем:

NURAFSHON ELEKTR LOYIHA MCHJ
302554740

и резервный исполнитель: ООО SUN-HIGHTECH (307258109)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	PARPIYEV ABDULXAFIZ ABDUG·APPAROVICH	Согласен	
Член комиссии	XAYDAROVA SEVARAXON ERGASHBOYEVNA	Согласен	
Член комиссии	KODIROV SHERZOD ASAMATJONOVICH	Согласен	
Член комиссии	QUVANOV AXLIDIN SALOXIDIN O·G·LI	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"NURAFSHON ELEKTR LOYIHA" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'satilgan holdagi to'liq nomi)

"NURAFSHON ELEKTR LOYIHA" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

27.03.2013

2823

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR):

302554740

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Andijon viloyati, Shaxrixon tumani, O'rta Shaxrixon, CHORCHAMAN,

Guvohnoma:

Andijon viloyati, Shaxrixon tumani, DAVLAT XIZMATLARI
MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):



Andijon viloyati, Shahrixon tumani DXM
tomonidan 2022-yil 23-iyunda
2823-son reestr
raqami bilan



«QAYTA RO'YXATGA OLINGAN»

«NURAFSHON ELEKTR LOYIHA»
mas'uliyati cheklangan jamiyati
ishtrokchilarining 2022-yil 23 iyundagi 1-son
umumiylig'ilishi
bayonnomasi bilan



«NURAFSHON ELEKTR LOYIHA»
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATINING
USTAVI
(yangi tahrirda)

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. «NURAFSHON ELEKTR LOYIHA» Mas’uliyati cheklangan jamiyatining (bundan buyon matnda «Jamiyat» deb yuritiladi) mazkur Ustavi O’zbekiston Respublikasining «Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g’risida»gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek Jamiyat Ishtirokchilarining 2012-yil 23-iyundagi Ta’sis shartnomasi asosida ishlab chiqilgan.

1.2. Jamiyatning Ishtirokchilari:

- «TESHABOEV YAXYOBEK KAMOLDINOVICH» — 4 000 000.00 UZS, ya’ni 50.00%;
- «ALIMOV XAMIDULLO ABDULAZIZ O’G’LI» — 4 000 000.00 UZS, ya’ni 50.00%;

1.3. Jamiyatning to‘liq firma nomi:

Davlat tilida: «NURAFSHON ELEKTR LOYIHA» mas’uliyati cheklangan jamiyati,

Rus tilida: Общество с ограниченной ответственностью «NURAFSHON ELEKTR LOYIHA»;

Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi:

Davlat tilida: «NURAFSHON ELEKTR LOYIHA» MChJ

Rus tilida: ООО «NURAFSHON ELEKTR LOYIHA».

1.4. Jamiyatning pochta manzili: **O’zbekiston Respublikasi, Andijon viloyati, Shahrixon tumani, Shokirboy MFY, Chorchaman ko’chasi.**

1.5. Jamiyat cheklanmagan muddatga tashkil etiladi.

II. JAMIYATNING YURIDIK MAQOMI

2.1. Jamiyat O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga asosan yuridik shaxs hisoblanadi. Jamiyat belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o’tkazilganidan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi.

2.2. Jamiyat o’z faoliyatini mazkur ustav va O’zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq va ta’sis hujjatlariga asosan amalga oshiradi.

2.3. Jamiyat o’z majburiyatlari bo‘yicha O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi. Jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo’shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Jamiyatning o’z hissasini to‘la qo’shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

2.4. Jamiyat o‘zining firma nomi yozilgan shtamp va blankalarga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan o’z emblemasiga, tovar belgisiga ega bo‘lishga haqli.

2.5. Jamiyat o’z egaligida mustaqil balansda hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega, o’z nomidan huquqlar va majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

III. JAMIYATNING FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

3.1. Jamiyat O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatları talablariga muvofiq vakolatxonalar va filiallar va boshqa alohida bo‘linmalar tuzishga haqli.

IV. JAMIYATNI TASHKIL ETISHDAN MAQSAD VA FAOLIYAT TURLARI

4.1. Jamiyatni tashkil etishdan asosiy maqsad ishtirokchilar manfaatlari uchun foyda olish.

Jamiyat faoliyatining predmeti bo‘lib **Barcha turdagি loyiha ishlariini amalga oshirish** hisoblanadi.

Shu jumladan:

- Boshqa rezina buyumlar ishlab chiqarish;
- Qurilish uchun plastik buyumlar ishlab chiqarish;
- Boshqa plastmassa buyumlar ishlab chiqarish;
- Qurilish metall konstruksiyalari va buyumlari ishlab chiqarish;
- Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish;
- Izolyatsiyalash ishlari;
- Boshqa avtomobilarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash;
- Boshqa pardozlash ishlari;
- Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosи;

- Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi;
- Avtomobil transportida yuk tashish;
- Yengil avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;
- Boshqa yog'och buyumlar ishlab chiqarish; po'kak, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish;
- Beton, qurilish gipsi va sementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari;
- Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari;
- Avtomobillarni yuvish, sayqallash va shu kabi faoliyat;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan, motorli transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash turlari;
- Ixtisoslashmagan ulgurji savdo;
- Ilgari iste'molda bo'lган tovarlar chakana savdosi;

22.19.0. Boshqa rezina buyumlar ishlab chiqarish

22.11.1. Rezina shina, pokrishka va kameralar ishlab chiqarish

22.11.2. Rezina shina va pokrishkalarni tiklash

22.21.0. Plastmassa plitalar, tasmalar, quvurlar va profillar ishlab chiqarish

22.22.0. Tovarlar uchun plastik qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqarish

22.23.0. Qurilish uchun plastik buyumlar ishlab chiqarish

22.29.0. Boshqa plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

23.11.0. Listlangan shisha ishlab chiqarish

23.12.0. Listlangan shishani qoliplash va ishlov berish

23.13.0. Kovak shisha buyumlar ishlab chiqarish

23.14.0. Shisha tola ishlab chiqarish

23.19.0. Boshqa shisha buyumlarni, jumladan texnik buyumlarni, ishlab chiqarish va ishlov berish

23.20.0. O'tga chidamli buyumlar ishlab chiqarish

23.31.0. Keramik qoplama va plitalar ishlab chiqarish

23.32.0. G'isht, cherepitsa va pishirilgan loydan boshqa qurilish materiallari ishlab chiqarish

23.41.0. Maishiy va dekorativ keramik buyumlar ishlab chiqarish

23.42.0. Keramikadan gigiyenik sanitariya-texnika buyumlari ishlab chiqarish

23.43.0. Keramik izolyatsiyalovchi materiallar va garnituralar ishlab chiqarish

23.44.0. Boshqa texnik keramik buyumlar ishlab chiqarish

23.49.0. Boshqa keramik buyumlar ishlab chiqarish

23.51.0. Sement ishlab chiqarish

23.52.0. Ohak va qurilish uchun gips ishlab chiqarish

23.61.0. Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish

23.62.0. Qurilish maqsadlariga mo'ljallangan gips buyumlar ishlab chiqarish

23.63.0. Tayyor beton ishlab chiqarish

23.64.0. Quruq beton qorishmalari ishlab chiqarish

23.65.0. Tolali sement ishlab chiqarish

23.69.0. Beton, qurilish gipsi va sementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish

23.70.0. Toshni kesish, ishlov berish va pardozlash

23.91.0. Abraziv buyumlar ishlab chiqarish

23.99.0. Boshqa toifalarga kiritilmagan nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

24.10.0. Cho'yan, po'lat va temir qotishmalarni ishlab chiqarish

24.20.0. Po'lat quvur, quvuro'tkazgich, profil, fitinglar ishlab chiqarish

24.31.0. Sovuq holda cho'zish

24.32.0. Tasma va tor tasmalarni sovuq holda prokatka qilish (yo'yish)

- 24.33.0. Sovuq holda qoliplash va falsovka qilish
 25.93.0. Simdan buyumlar, zanjirlar va prujinalar ishlab chiqarish
 25.94.0. Mahkamlash uchun va rezbali buyumlar ishlab chiqarish
 25.99.0. Boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish
 26.11.0. Elektron qismlar ishlab chiqarish
 26.12.0. Elektron yuklash panellari ishlab chiqarish
 26.20.0. Kompyuterlar va periferik uskunalar ishlab chiqarish
 26.30.0. Kommunikatsiya uskunalari ishlab chiqarish
 26.40.0. Maishiy elektronika asboblari ishlab chiqarish
 26.51.0. O'lchash, nazorat, sinash va navigatsiya uchun asbob-uskunalar ishlab chiqarish
 26.52.0. Soatlar ishlab chiqarish
 26.60.0. Nurlantiruvchi, elektr meditsina va elektr terapiya uskunalar ishlab chiqarish
 26.70.0. Optika asboblari va fotografiya uskunalar ishlab chiqarish
 26.80.0. Axborot uzatishning magnit va optik vositalarini ishlab chiqarish
 27.11.0. Elektr dvigatellar, generatorlar va transformatorlar ishlab chiqarish
 27.12.0. Elektr taqsimlovchi va boshqaruv apparaturalari ishlab chiqarish
 27.20.0. Batareya va akkumulyatorlar ishlab chiqarish
 27.31.0. Optik tolali kabel ishlab chiqarish
 27.32.0. Elektr simlari va kabelning boshqa turlarini ishlab chiqarish
 27.33.0. Elektr asboblar ishlab chiqarish
 27.40.0. Elektr yoritish uskunalar ishlab chiqarish
 27.51.0. Maishiy elektr asboblar ishlab chiqarish
 27.52.0. Maishiy noelektr asboblar ishlab chiqarish
 27.90.0. Boshqa elektr asboblar ishlab chiqarish
 28.11.0. Aviatsiya uchun mo'ljallanganidan tashqari dvigatellar va turbinalar, avtomobil va mototsikllar dvigatellari ishlab chiqarish
 28.12.0. Gidravlik va pnevmatik uskunalar ishlab chiqarish
 28.13.0. Boshqa nasos va kompressorlar ishlab chiqarish
 28.14.0. Boshqa jo'mrak va ventillar ishlab chiqarish
 28.15.0. Podshipniklar, tishli g'ildiraklar, tishli uzatma va yuritmalarining elementlarini ishlab chiqarish
 28.21.0. Plita, pechka va pechka gorelkalari ishlab chiqarish
 28.22.0. Ko'tarma-transport uskunalar ishlab chiqarish
 28.23.0. Ofis texnikasi va jihozlari ishlab chiqarish (kompyuterlar va periferik uskunalaridan tashqari)
 28.24.0. Qo'l elektr asboblari ishlab chiqarish
 28.25.0. Sanoat sovitish va ventilyatsiya uskunalar ishlab chiqarish
 28.29.0. Boshqa toifalarga kiritilmagan umumiy foydalanishga mo'ljallangan mashina va uskunalarini ishlab chiqarish

qonun hujjalari bilan taqiqlanmagan boshqa har qanday faoliyat turlari.

4.2. Amalga oshirilishi uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qilinadigan faoliyat tegishli ruxsatnoma (litsenziya) olingandan keyin amalga oshiriladi.

V. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Jamiyat ishtirokchilari quyidagilarga haqlidirlar:

qonun hujjalarida va jamiyatning ta'sis hujjalarida belgilangan tartibda jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etish;

qonun hujjalarida va jamiyat ta'sis hujjalarida belgilangan tartibda jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjalari bilan tanishish;

foydani taqsimlashda va uning tegishli qismini olishda ishtirok etish;

jamiyatning ustav fondidagi o‘z ulushini yoxud uning bir qismini qonun hujjalarda va jamiyatning ustavida nazarda tutilgan tartibda mazkur jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga yoxud uchinchi shaxslarga sotish yoki o‘zga tarzda ularning foydasiga voz kechish;

jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat’i nazar, qonun hujjalarda va jamiyatning ta’sis hujjalarda nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyat ishtirokchilari tarkibidan chiqish;

jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish;

jamii ulushlari jamiyat ustav fondining kamida o’n foizini tashkil etadigan jamiyat ishtirokchilari o‘z majburiyatlarini qo‘pol buzayotgan yoxud o‘z harakatlari yoki harakatsizligi bilan jamiyatning faoliyat ko‘rsatishiga imkon bermayotgan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtirayotgan ishtirokchini jamiyatdan sud tartibida chiqarilishini talab qilishga haqlidirlar;

jamiyat ishtirokchilari jamiyatning ta’sis hujjalarda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

5.2. Jamiyat ishtirokchilarining majburiyatları:

qonun hujjalarda va jamiyatning ta’sis hujjalarda nazarda tutilgan qoidalarga amal qilishlari;

qonun hujjalarda va jamiyatning ta’sis hujjalarda nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo‘shishlari;

jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmasliklari shart.

Jamiyat ishtirokchilariga jamiyatning ta’sis hujjalarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

VI. JAMIYATNING MOL-MULKI VA MABLAG'LARI

6.1. Jamiyat mustaqil ravishda o‘ziga tegishli mol-mulkdan foydalanadi.

6.2. Jamiyatning mol-mulki:

— ishtirokchilarning ulushlaridan;

— jamiyat faoliyati natijasida olingan foydadan;

— O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan shakllantiriladi.

VII. JAMIYATNING USTAV FONDI

7.1. Jamiyatning tashkil etilishi va faoliyatini amalga oshirishi uchun ishtirokchilar 8 000 000.00 so‘m miqdorida ustav fondi shakllantirishadi.

7.2. Ishtirokchilarning ustav fondidagi ulushlari quyidagicha:

— «TESHABOEV YAXYOBEK KAMOLDINOVICH» — 4 000 000.00 UZS, ya’ni 50.00%;

— «ALIMOV XAMIDULLO ABDULAZIZ O‘G‘LI» — 4 000 000.00 UZS, ya’ni 50.00%; 7.3. Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan keyin bir yil mobaynida Ishtirokchilarning har biri ustav fondidagi ulushini to‘liq kiritadi.

7.4. Pul, qimmatli qog‘ozlar, o‘zga ashylar yoki mulkiy huquqlar yoxud pul bahosiga ega bo‘lgan boshqa shaxsga o‘tkaziladigan o‘zga huquqlar jamiyatning ustav fondiga qo‘shiladigan hissalar bo‘lishi mumkin.

7.5. Jamiyat ishtirokchilarining umumiyy yig‘ilishi qaroriga asosan ustav fondini ko‘paytirishi yoki kamaytirishi mumkin.

7.6. Jamiyatning ustav fondini ko‘paytirishga u to‘liq to‘langanidan keyingina yo‘l qo‘yiladi. Jamiyat ustav fondining ko‘paytirilishi jamiyatning mol-mulki hisobiga va (yoki) jamiyat ishtirokchilarining qo‘shimcha hissalarini hisobiga, agar bu jamiyatning ustavi bilan taqiqlangan bo‘lmasa, jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslar hissalarini hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat ustav fondini jamiyatning mol-mulki hisobiga ko‘paytirish to‘g‘risidagi qaror bunday qaror qabul qilingan yildan oldingi yil uchun jamiyatning buxgalteriya hisoboti ma’lumotlari asosidagina qabul qilinishi mumkin.

7.7. Jamiyatning ustav fondini kamaytirish ishtirokchilarga tegishli bo‘lgan ulushlarning nominal qiymatini kamaytirish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat ustav fondini kamaytirish va uning yangi

miqdori to'g'risida qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab o'ttiz kun mobaynida jamiyatning unga ma'lum bo'lган barcha kreditorlarini xabardor qilishi, shuningdek qabul qilingan qaror to'g'risida ommaviy axborot vositalarida ma'lumot e'lon qilishi shart.

7.8. Ustav fondini o'zgartirish to'g'risidagi qaror uchinchi shaxslar uchun ustav va ta'sis shartnomasiga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyingina kuchga kiradi.

VIII. ISHTIROKCHILARNING JAMIYAT ISHTIROKCHILARI SAFIDAN CHIQISHI VA UNING OQIBATLARI

8.1. Jamiyatning har qanday ishtirokchisi jamiyat ishtirokchilari safidan chiqish huquqiga ega. Bunday holatda ishtirokchi ustav fondidagi o'z ulushini qolgan ishtirokchilarga yoxud ularning roziligi bo'yicha uchinchi shaxslarga sotish yoki ularning foydasiga voz kechish huquqiga ega.

8.2. Ishtirokchi ishtirokchilar safidan chiqishida unga o'zi tomonidan ustav fondiga kiritilgan ulushning haqiqiy qiymati natura yoki haqiqiy qiymatiga teng bo'lган pul ko'rinishida qaytariladi.

8.3. Jamiyat ishtirokchisi o'zgartirilganidan keyin jamiyatning ta'sis hujjatlariga zaruriy o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishi lozim.

8.4. Jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi.

IX. JAMIYAT ISHTIROKCHISINING JAMIYAT USTAV FONDIDAGI ULUSHINING (ULUSHI BIR QISMINING) JAMIYATNING BOSHQA ISHTIROKCHILARIGA VA UCHINCHI SHAXSLARGA O'TISHI

9.1. Jamiyat ishtirokchilaridan har biri jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushini yoki ulushining qismini jamiyatning boshqa ishtirokchilariga va uchinchi shaxslarga sotishga yoki boshqacha shaklda ularning foydasiga voz kechishga haqli.

9.2. Jamiyat ishtirokchisining ulushi to'liq to'langan davrgacha bo'lган muddatda to'langan qismi bo'yichagina begonalashtirilishi mumkin.

9.3. Jamiyat ustav fondidagi ulushdan (ulushning bir qismidan) boshqa shaxsning foydasiga voz kechish, oddiy yozma shaklda amalga oshirilishi kerak.

X. JAMIYATNING HUJJATLARINI SAQLASH

10.1. Jamiyat quyidagi hujjatlarni saqlashi shart:

— jamiyatning ta'sis hujjatlari, shuningdek jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar;

— jamiyat muassislari yig'ilishining jamiyatni tashkil etish va jamiyatning ustav fondiga qo'shiladigan pulsiz hissalarning pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qarorni, shuningdek jamiyatni tashkil etish bilan bog'liq boshqa qarorlarni o'z ichiga olgan bayonnomasi;

— jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat;

— jamiyatning o'z balansida turgan mol-mulkka bo'lган huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;

— jamiyatning filiallari va vakolatxonalarini to'g'risidagi nizomlar;

— jamiyat ishtirokchilari umumiyligi yig'ilishlarining, jamiyat kuzatuv kengashi, jamiyatning kollegial ijro etuvchi organi va jamiyatning taftish komissiyasi majlislarining bayonnomalari;

— jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) va auditorlik tashkilotining xulosalari;

— qonun hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa hujjatlar.

10.2. Yuqorida aytib o'tilgan hujjatlari ijro etuvchi organ joylashgan joyda saqlanadi.

10.3. Agarda amaldagi qonun hujjatlari bilan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lmasa, jamiyat mazkur ustavning 10.1-bandida ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni doimiy saqlaydi.

10.4. Jamiyat har qanday ishtirokchining talabi bilan unga axborot, shuningdek ta'sis hujjatlarini unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan taqdim qilishi yoki nusxa berishi shart.

XI. HISOB VA HISOBOT

11.1. Jamiyat o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va o‘z mahsuloti va xizmatlariga narxlarni bozor konyukturasidan kelib chiqib belgilaydi.

11.2. Jamiyat mustaqil ravishda buxgalteriya hisobini, statistika va moliyaviy hisobotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

11.3. Jamiyat mustaqil ravishda jamiyatning tashkiliy tuzilmasini, shtat jadvalini va mehnatga haq to‘lashni O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hal qiladi.

11.4. Jamiyat faoliyatiga oid hisobotlarni qonunda belgilangan tartibda davlat organlariga taqdim qiladi.

XII. DAROMADNI TAQSIMLASH VA ZIYONLARNI QOPLASH

12.2. Jamiyat ustav fondining 15% miqdorida zaxira fondi shakllantiradi. Jamiyatning zaxira fondi uning zararlarini qoplash va qonunda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning ustav fondidagi ulushni (ulushning qismini) sotib olish uchun mo‘ljallangan.

XIII. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI

13.1. Jamiyatning boshqaruv organlari bo‘lib quyidagilar belgilanadi:

- ishtirokchilarining umumiyligi yig‘ilishi — oliy boshqaruv organi;
- direktor jamiyatning ijro etuvchi organi.

13.2. Jamiyatda kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi belgilangan tartibda tashkil etilishi mumkin.

XIV. ISHTIROKCHILARNING UMUMIY YIG‘ILISHI

14.1. Jamiyatning oliy boshqaruv organi bo‘lib jamiyat ishtirokchilarining umumiyligi yig‘ilishi hisoblanadi.

14.2. Jamiyatning har bir ishtirokchisi jamiyat ishtirokchilarining umumiyligi yig‘ilishida jamiyatning ustav fondidagi o‘z ulushiga mutanosib ovozlar soniga ega bo‘ladi.

14.3. Jamiyat ishtirokchilarini umumiyligi yig‘ilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

a) jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash, shuningdek tijorat tashkilotlarining boshqa birlashmalarida ishtirok etish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

b) jamiyat ustav fondining miqdorini o‘zgartirish;

v) ta’sis hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish;

g) jamiyatning ijro etuvchi organlarini tuzish va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

d) jamiyatning taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

ye) agar jamiyatning ustavida kuzatuv kengashini tuzish nazarda tutilgan bo‘lsa, uni saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

j) yillik hisobotlarni va yillik buxgalteriya balanslarini tasdiqlash;

z) jamiyatning sof foydasini jamiyat ishtirokchilarini o‘rtasida taqsimlash to‘g‘risida qaror qabul qilish;

i) jamiyat organlarining faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash (qabul qilish);

k) auditorlik tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish, auditorlik tashkilotlari hamda ularning xizmatlariga to‘lanadigan haqning eng ko‘p miqdorini aniqlash;

l) boshqa yuridik shaxslarni, vakolatxonalar va filiallarni tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

m) jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

n) tugatuvchini tayinlash va tugatish balanslarini tasdiqlash.

Jamiyat ishtirokchilarini umumiyligi yig‘ilishining a), b), v), z) va m) kichik bandlarida ko‘rsatilgan masalalar yuzasidan qarorlari jamiyatning barcha ishtirokchilarini tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Jamiyat ishtirokchilarini umumiyligi yig‘ilishining qolgan qarorlari, jamiyat ishtirokchilarini umumiyligi ovozlar sonining ko‘pchilik ovozlari bilan qabul qilinadi.

XV. IJRO ETUVCHI ORGAN

15.1. Jamiyatning ijro etuvchi organi bo'lib jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi direktor hisoblanadi.

15.2. Jamiyatning direktori ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi.

15.3. Jamiyat va jamiyatning direktori o'rtasidagi shartnoma, jamiyat nomidan, direktor tayinlangan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishida raislik qiluvchi yoki jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan vakolat berilgan jamiyat ishtirokchisi tomonidan imzolanadi.

15.4. Direktor lavozimiga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Direktor bilan tuzilgan mehnat shartnomasini direktorni saylash to'g'risidagi masala ko'rib chiqilgan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi raisi imzolaydi.

15.5. Direktor lavozimidan ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi qarori bilan lavozimidan ozod qilinishi mumkin.

15.6. Jamiyatning direktori:

jamiat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi va bitimlar tuzadi;

jamiat nomidan vakillik qilish huquqi uchun ishonchnomalar beradi;

jamiat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va ularni bekor qiladi, xodimlarga nisbatan rag'batlantirish choralarini va intizomiy jazolarni qo'llaydi;

jamiyatning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lган buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi;

qonun hujjatlari va jamiyatning ustavi bilan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi va jamiyatning kuzatuv kengashi vakolatlari jumlasiga kiritilmagan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

15.7. Direktor ishtirokchilar umumiy yig'ilishi hisobot beradi va uning oldida jamiyat faoliyatining amalga oshirilishi hamda unga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarning bajarilishi uchun javobgardir.

15.8. Direktor jamiat mol-mulkini tasarruf etishi va ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi qarori bo'yicha yirik bitimlar tuzishi mumkin.

XVI. JAMIYAT FAOLIYATI YUZASIDAN NAZORAT

16.1. Jamiatda alohida nazorat qiluvchi organning tuzilishi ko'zda tutilmagan.

16.2. Jamiatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat ishtirokchilar yoxud mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

XVII. XODIMLAR

17.1. Jamiat ma'muriyati xodimlar bilan jamoa shartnomasini imzolaydi. Ushbu shartnomaning mazmuni, shu jumladan «Xodimlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi nizom» O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, mazkur ustav, shuningdek jamiyat faoliyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

XVIII. JAMIYATNING TIJORAT SIRI

18.1. Jamiatning tijorat siri — uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli tijorat qimmatiga ega bo'lgan, qonuniy asosda erkin foydalanilmaydigan axborot bo'lib, ushbu axborot jamiat tomonidan uning maxfiyligini muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radi.

18.2. Tijorat sirining muhofaza qilinishini ta'minlash maqsadida xodim:

ish beruvchi tomonidan o'rmatilgan tijorat siri rejimiga rioya etishi;

ish beruvchining rozilgisiz tijorat sirini oshkor etmasligi va undan shaxsiy maqsadlarda foydalanmasligi;

mehnat shartnomasi (kontrakt) bekor qilinganda o'z foydalanishida bo'lgan, tijorat siri aks etgan moddiy jismlarni ish beruvchiga topshirishi yoki uni mazkur jismlardan ish beruvchining nazorati ostida yo'q qilib yoxud o'chirib tashlashi shart.

XIX. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

19.1. Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49 — 55-moddalarida va «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 49 — 55-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

19.2. Jamiyatni qayta tashkil etish ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qarori bo'yicha qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish va qayta tuzish shaklida amalga oshirilishi mumkin.

19.3. Jamiyat belgilangan tartibda ixtiyoriy ravishda ishtirokchilarning Umumiy yig'ilishi qarori bo'yicha tugatilishi mumkin. Jamiyat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra sudning qaroriga binoan ham tugatilishi mumkin.

19.4. Jamiyatning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritib qo'yilganidan so'ng jamiyatni tugatish tamomlangan, jamiyatning faoliyati esa tugagan hisoblanadi.

XX. NIZOLARNI HAL QILISH

20.1. Ta'sis shartnomasi va ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar ishtirokchilarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari, ta'sis shartnomasi va ustavga asosan hal qilinadi.

20.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'limgan taqdirda ular sud orqali, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

XXI. YAKUNIY QOIDALAR

21.1. Mazkur Ustav jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

21.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan masalalar, qonunda boshqa hollar nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Ustavga muvofiq tartibga solinadi.



SH

A handwritten signature consisting of several loops and strokes, appearing to be a stylized "SH".

Telrobod Zol jabol

Anurod Xamayev